

9-10-2019

POETRY OF JAMAL KAMOL

Dildora Nazarova

Teacher-assistant of the department of Pedagogy, Psychology and Languages at the Bukhara state Medical Institute

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu>



Part of the [Education Commons](#)

Recommended Citation

Nazarova, Dildora (2019) "POETRY OF JAMAL KAMOL," *Scientific Bulletin of Namangan State University*. Vol. 1 : Iss. 7 , Article 31.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss7/31>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific Bulletin of Namangan State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact sh.erkinov@edu.uz.

POETRY OF JAMAL KAMOL

Cover Page Footnote

???????

Erratum

???????

JAMOL KAMOL SHE'RIYATI POETIKASI

Nazarova Dildora. Buxoro tibbiyot instituti
Pedagogika, psixologiya va tillar kafedrası assistenti

***Anatatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoiri mahoratli tarjimon Jamol Kamol she'rlarining mazmun mundariyasi hamda poetik uslubiga xos tushunchalar haqida fikr yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** she'riyat, so'z ma'rifat, haqiqat*

ПОЭТИКА ПОЭЗИИ ДЖАМАЛА КАМАЛА.

Назарова Дилдора
Ассистент кафедры педагогики, психологии и языков
Бухарского государственного медицинского института

***Аннотация:** В данной статье трактуется поэтический стиль и содержание мастерства перевода народного поэта Узбекистан Камола Джамала в его стихотворении*

***Ключевые слова:** поэзия, слово просветительство, правда*

POETRY OF JAMAL KAMOL

Nazarova Dildora
Teacher-assistant of the department of Pedagogy, Psychology and Languages at the
Bukhara state Medical Institute

***Abstract:** This article provides an overview of the contents and poetic style of the poetry of Jamal Kamol - a talented translator of the national poetry of Uzbekistan.*

***Key words:** poetry, word, enlightenment, truth.*

So'z maydonga chiqdimi endi u ko'pchilikni mulkiga aylanadi. Endi uning vazifasi shu ko'pchilikning manfaati, orzu o'ylari, g'am tashvishlari quvonch va dardlari bo'lishi kerak. So'z davr qiyinchiliklariga chiday olgandagina shu qiyinchiliklar to'fonida ham o'z kuchini saqlay olgandagina haqiqiy so'z bo'ladi. Shundagina uning ortidan ergashish, unga ishonish mumkin. Jamol Kamol she'riyatida So'z o'zining ana shu ulkan vazifani yoqlaydi.

Jamol Kamol ijodiy merosi ham davr qiyinchiliklarini yenga olgan va shu bilan birga ular bilan yelkama-yelka tura olgan she'riyat. Jamol Kamol ham dunyodagi barcha shoirlar singari insonni qiziqtirgan, inson qalbini to'lqinlantirgan abadiy va azaliy mavzularda qalam tebratdi. Uning lirikasida xalqimiz o'tmish madaniyati va tarixini ulug'lash, buyuk ajdodlarimizdan faxrlanish, ma'naviy-axloqiy muammolar, insoniy dardlar, armonlar, ishq-muhabbat kabi mavzular keng o'rin olgan [1].

Jamol Kamolning "Suvaydo", "Quyosh chashmasi", "Umidli dunyo", "Cho'qqilarda yog'ildi yog'du", "Yana ko'nglimda ul oy", "Qadah", "Tosh tug'yon", "Tafakkur" kabi she'riy toplamlaridan joy olgan nafis she'rlarining o'zi allaqachon asl kitobxonning dilidan o'rin olgan desak xato qilmagan bo'lamiz.

Shoirlik har kimga ham nasib etavermaydi, yoki hamma ham shoir bo'lavermaydi. Mumtoz adabiyotimizning mashhur namoyandasi Muhammad Rizo Ogahiy aytganidek, "Tangri taolo alarning ba'zisining tilin fasohat va balog'at bobida nodir va so'z rishtasiga

maoniy javohirin nazm etarga qodir qilib, ma'ni ahli orasida quyosh yanglig' ravshan va sarafroz etti". Shu bois, chinakam shoirlik maqomiga shoirman deb yurganlarning hammasi ham erishavermaydi, mashhur bo'lavermaydi.

Jamol Kamolning milliy she'riyatimizda o'z o'rniga ega ijodkor. Uning falsafiy ruhda yozilgan she'rlar diqqatni tormasdan kitobxonni o'ylantirmasdan qo'ymaydi. Jumladan uning biografik mazmunda yozilgan she'rlarida o'zgacha mazmun kasb etadi. Uning biografiyasiga nazar tash tashlaydigan bo'lsak uning bolaligi juda qiyin davrlarda mashaqqatlarda o'tganligiga guvoh bo'lamiz. Ayniqsa shoir she'rlarida otasini shunday xotirlaydi:

O'ttiz besh yoshida otam otildi,
Uch oylik chaqaloq edim o'shanda.
O'sha tun oshimga zahar otildi,
Taqdir zarbasini yedim o'shanda.
Yo'q deb qichqiraman umrim boricha,
Lekin qismat degan turmaydi ayab,
O'ttiz besh yildirki, har yarim kecha
Meni otishadi devorga suyab...[B-125].

Ha! Shoir qismati, bolalik xotiralari anchayin dardli bu- dard uning yillar davomida bitiklarning qat-qatiga singib ketgan. Shoir Ibrohim Haqqul aytganidek "Xayriyatki, Oллоh taolo insonga sabr va bardosh ato etgan. Lekin ko'ngil tosh, yo temir emas g'am anduh uni barbir yengadi. Otasi Kamol Husanxo'ja hajrida onasi Hojalbegim ham o'ttiz besh yoshida vafot etdi"[2].

Otam diydorini ko'rolmadim men,
Onasiz o'ssam-da bolmadim yetim...

Bu satrlarda ko'rinib turibdiki, shoir barcha qiyinchiliklarni katta matonat bilan yengishga harakat qildi. Uning she'rlarida alam, hasrat, dard, armon, olovlanishi shundan. Uning armon to'la hasratlari "Otam" deb nomlangan she'rida juda go'zal tasvirlangan.

Ajab, men armonsiz yura bilmadim
Shu buyuk, munavvar yurtga munosib.
Otam diydorini ko'ra bilmadim,
Ota mehri menga bo'lmadi nasib
Bolajon do'stlarim har gal bearmon
Otalar yuziga surganida yuz
Bitta suykanishga ko'nglim nigoron
Qarab tura verdim bir chetda mayus[B-125].

Shoirning dard alam bilan yozgan ushbu satrlari qalbi yillar davomida o'rtanib, qalb devorlarida chuqur iz qoldirganini payqash qiyin emas. "Bitta suykanish ko'nglim nigoron" degan jumalarni o'ziyoq kishi qalb torlarini chertib o'tadi. Jamol Kamol shunchaki yozmaydi. Har bir so'zida she'rxoni larzaga soluvchi bir sehr bor.

Hammasi mayliga so'ngi bor toshib
So'ngi armon aytar senga nasibam
Loaql tobuti oldida tushib
Vo otam deb!-deb faryod chekolmadim ham.

Qalbidan otilib chiqayot shoir nolasida achchiq qismatning dog'i,alami ufrib turadi.Bular bejiz emas albatta shoir xotiralari nazar tashlaydigan bo'lsak, uning otasini birgina so'zi" Fayzulla Xo'jayeva Akmal Ikromovlar xalq dushmani emas do'sti edi" degan so'zi uchun otiladi.Hali beshikda yotgan murg'ak go'dak uch oylik chaqalaq edi shu qismat uni yillar bo'yi qalbini armonlar hasratlarga to'ldirdi.

Shoir she'rini avj pardasi shu yerdan boshlanadi:

Xullas, toleida Kamol bo'lganda,
Biroz boshqacharoq bo'lardi Jamol.
Boshqacha bo'lardi qalbimdagi ruh,
Bovar etasizmi,etmaysizmiyo.
Boshqacha bo'lardi qalbimda shukuh,
Boshqacha bo'lardi qalbimda dunyo[B-126].

Bilmadim shoir qalbida kechayotga tuyg'ularni his qila olish uchun uning kechinmalarini to'laqonli anglab olish uchun katta qalb egasi bo'lish kerak.Shoir she'rda tajofilu orifon san'atidan unumli foydalangan holda

Kimdir kimdir u go'dak yoshimdan,
Yoshimni oqizib boshimni eggan?
Kimdir u otamni yulib boshimdan,
Meni alamlarga giriftor etgan?

deya achchiq qismatdan javob talab qiladi. Bu shoirning estetik didini yana bir karra namoyon etadi.

Umuman, Jamol Kamol she'rlarining badiiy til xususiyatlari tadqiq qilinayotgan mavzu e'tiboridan bir sidra nazardan o'tkazish shoir ijodining poetik mahoratini yana ham teranroq anglashga xizmat qiladi. Darhaqiqat, Jamol Kamolning o'zi ehtirom bilan ta'kidlaganidek, "She'r-harakatdagi hissiyot,hissiyotdagi fikr.Yoki aksincha, harakatdagi fikr, fikrdagi hissiyot.Alisher Navoiy buni xos ma'ni,xos hol deb ataydi.Ana shu narsa she'rga joziba bag'ishlaydi.Ba'zi she'rlarda xuddi hamma narsa qofiya,turoq,vazn joyida.Lekin joziba yo'q.Shoir uchun iste'dot kerak.Iste'dotning uch belgisi bor:so'z tuyg'usi,haqiqat tuyg'usi,go'zallik,nafosat tuyg'usi.Ana shu uch tuyg'u birlashgan joyda chinnakam she'r tug'uladi.Boshqacha aytganda,haqiqat-she'rning otasi,go'zallik-onasi.So'z uning libosi.She'rdan haqiqat ruhi gurkirab,nafosat atri taralib turmog'i darkor[3].

Jamol Kamol she'riy olamida haqiqat ruhi ufurib turgan she'rlari talaygina. Obrazli tafakkurning eng serjilo, ta'sirchan va lo'nda shakli bo'lgan she'riy asarlarda poetik so'zning o'rni o'zgachadir. Shoir oddiy so'zlarni muayyan sifatlar yoki iboralar bilan qo'llaganda kutilmagan ma'nolar, favqulodda ta'sirchan, quyma misralar maydonga keladi. Zotan shoir Jamol Kamol she'rlarida ipakday mayin, mushki anbardek iforli, xanjardek keskir so'z va ma'no uyg'unligi mujassamdir. Ma'lumki, badiiy asar tilini poetik tahlil qilishda poetik nutqning fikr ifodalashdagi imkoniyatlari o'rganiladi. Darvoqe, buni Jamol Kamol ijodining umumiy manzarasida ham, ko'plab she'rlarida ham kuzatiladi. Shoir ona tili imkoniyatlaridan foydalanib, so'zning ma'nosini kengaytirishga harakat qiladi. Injular tizmasidek jilolangan ona tili lug'at boyligini botiniy ko'z bilan ko'ra olgan shoir har bir so'zni did bilan tanlaydi, tafakkur tarozisida o'lchaydi.

Original va obrazli ifoda usuli zamirida badiiy mantiq yotadi; tabiiyki, bu mantiqlol'nda, har qanday suniy bezakdan xoli, ixcham shaklda yuzaga chiqadi. Cho'lpon "Adabiyotni o'tkir yurak kirlarini yuvadirg'on toza ma'rifat suvi" deya tariflagan edi.

Jamol Kamol shunga uyg'un fikrni o'ziga xos tarzda, betakror ifodalaydi. Uningcha: Adabiyot-millat ruhining gulshani. Shuning uchun bo'lsa kerak, millatni quritmoqchi bo'lganlar birinchi galda adabiyot bog'ini quritishadi.

Xullas, adabiyotsiz millatning holi xarob. Chindan ham adabiyot mo'jiza. So'z mo'jizasi. So'z insonga berilgan ilohiy gavhar.

Insonni so'z ayladi judo hayvondin

Bas, guhari sharifroq yo'q andin...

dunyodan ustun turadi. Sababi, avval, so'z yaralgan keyin so'z vositasida dunyo. So'zda insondagi ilohiylik-ruh aks etadi. So'z ummoni tubida dur-u javohirlar behisob. Hadis bor Men ikki olamni birgina ko'ngil uchun yaratdim deydi. Parvardigor... Ikki olam bir ko'ngilga sig'adi. Lekin bir ko'ngil ikki olam sig'maydi. Ko'ngil ilohiy mo'jiza. She'r ko'ngil mo'jizasi.

Jamol Kamol she'rlari ko'ngil mo'jizalaridan yasalgan muhtasham imoratga o'xshaydi. Bir imoratki, uning ustunlari nazm javharining injularini o'zida mujassam etgan. Shoir qalb me'mori u o'z chizgilaridan qalbning siyratini chizadi. Qalbdan yaral she'r dillarni dillarga tillarni tillarga, ellarni ellarga bus- butun bog'laydigan bir ko'prik vazifasini o'taydi.

References:

1. Jamol Kamol "Umidli dunyo" „G'afur G'ulom nashiryoti., 1988. O'zbekiston xalq shoiri Shukrulloning "Umidli dunyo" she'riy to'plamiga so'z boshi o'rnida.
2. Ibrohim Haqqul "Asr bilan vidolashuv" „So'z boshi., T. "Otam"., 2018.
3. Jamol Kamol "She'r san'ati" Adabiyot millat ruhining gulshani" , T. ., 2018